



ISSN 0868-6645

O'ZBEKISTON IQTISODIY AXBOROTNOMASI

№ 3, 2001 y.
mart

Ilmiy-amaliy iqtisodiy nashr

USHBU SONDA:

TA' SISCHI:
O'zbekiston Respublikasi
Makroiqtisodiyot va statistika
vazirligi.

TAHRIR KENGASHI RAISI
HAMIDOV B.S.

TAHRIR KENGASHI:
AZIMOV R.S.
AHMEDOV D.K.
BEKMURODOV A.SH.
BRONSHTEYN V.I.
GOLISHEV V.A.
KUCHEROV V.P.
KUCHERSKIY N.I.
MULLAJONOV F.M.
NUROV I.N.
PERPER M.M.
RAHMONQULOV M. X.
G'OFUROV SH.R.
SHOABDURAHMONOV R.M.

Bosh muharrir
KARIMOV R.K.

Bosh muharrir o'rinbosari
VALIYEV R.L.

Mas'ul kotib
SAIDAHMEDOV A.

Manzilgohimiz:
700000, TOSHKENT SH.,
H. SULAYMONOVA KO'CHASI, 29.

O'zbekiston Respublikasi Matbuot
qo'mitasi ro'yxatidan o'tish tartibi
№ 00232. Ruxsat berilgan vaqti
1998 yil 5 noyabr.

OBUNA KO'RSATKICHLARIMIZ
«O'ZBEKISTON POCHTASI»da:

«O'ZIA»
korxonalar va idoralar uchun - 834
yakka tartibda - 835

«EVU»
korxonalar va idoralar uchun - 912
yakka tartibda - 913



**Jurnalni nashr etishda
ishtirok etganlar:**

IQTISODIYOT VA HUQUQ DUNYOSI
NASHRIYOT UYI

Muqova dizayneri
ZAYNUTDINOV B.
Sahifalovchi-dizayner
BOGDANSKIY V.



**Shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy
rivojlanishi va sanoat
korxonalari joylashtirilishi**

6-bet

**Mineral xom-ashyo
resurslaridan
foydalanishning
mintaqaviy
xususiyatlari**

18-bet



**Agrosanoat majmuida
lizing faoliyatini
yo'lga qo'yish**

30-bet

**Andijon viloyatining
o'ziga xos xususiyatlari**

36-bet



Maqolalar kompyuterda 2 intervalda yozilgan bo'lishi va ikki nus'hada, disket bilan birga olib kelinishi lozim. Tekst-Word 6.0 yoki 7.0 versiyada bo'lishi talab etiladi. Grafikli fayllar (grafiklar, diagrammalar, chizmalar, rasmlar) - 7.0 versiyadan yuqori bo'lmagan Yexsel formatida bo'lishi taqozo etiladi. Jadvallar faqat Table Editor 2.1 versiyasida bo'lishi shart.

Ilmiy tadqiqot yo'nalishidagi maqolalar uchun qo'shimcha ekspert xulosalari yoki retsenziyalar olib kelinishi kerak.

Muharririyatga kelib tushgan maqolalarga tanqidiy nuqtai-nazardan xulosalar, tushuntirish va izohlar berilmaydi.

Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигида амалга оширилаётган туб иқтисодий ислохотларнинг асосий йўналишларидан бири — бу қишлоқ хўжалигида банд бўлган ходимлар сонини қисқартириш, бўшатиш ишчи кучларини халқ хўжалигининг бошқа соҳаларига жалб этишдан иборатдир. Ҳисоб-китоблар шунини кўрсатадики, ҳозирги кунда ишлаб чиқаришга ҳеч қандай зарар етказмаган ҳолда қишлоқ хўжалигидан 2,3 млн. кишини бошқа соҳаларга жалб этиш мумкин. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришидан олинган ишчи кучини сиқиб чиқариш объектив зарурият бўлиб, иқтисодий ислохотларга, яъни бозор иқтисодиёти талабларига тўла мос келади ва қуйидаги масалаларни ҳал этишга ёрдам беради:

● *деҳқонлар меҳнат унумдорлиги ва даромадларини кескин ошириш имкониятлари яратилди. Бу эса, мос ҳолда меҳнат интизомини мустаҳкамлайди, ходимларнинг меҳнатга бўлган муносабатларини яхшилайди;*

● *қишлоқ хўжалигидан бўшатиш ишчи кучидан эса, халқ хўжалигининг бошқа тармоқларида фойдаланиш мумкин бўлади. Тажрибалар шунини кўрсатадики, келгусида меҳнатга яроқли ишчи кучининг асосий қисми хизмат кўрсатиш соҳаларида фаолият кўрсатади.*

ФЕРМЕР ХЎЖАЛИКЛАРИ

ВУЖУДГА КЕЛИШИННИНГ ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ

Ривожланган мамлакатлар тажрибасини ўрганиш шунини кўрсатадики, қишлоқ хўжалигида банд бўлган ходимлар ишга яроқли аҳолининг кўпи билан 3-5 фоизини ташкил қилиши мақсадга мувофиқ экан. Масалан, АҚШ, Германия, Бельгия, Голландия, Франция, Англия, Италия, Япония, Жанубий Корея каби қатор мамлакатларда битта фермер оиласи камида 100-120 нафар кишини қишлоқ хўжалик маҳсулотлари билан таъминлайди.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигида банд бўлган ҳар бир ходим 6 нафар мамлакат аҳолисига қишлоқ хўжалик маҳсулотлари етказиб бермоқда, бу албатта, жуда кам (25 млн. аҳолига 3,8 млн. банд бўлган ходимлар). Агар Республика аҳолиси эҳтиёжлари учун зарур бўлган қишлоқ хўжалик маҳсулотларининг бир қисми четдан келтирилаётганлигини ҳисобга олсак, бу кўрсаткич янада паст бўлишини тушуниш қийин эмас. Аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш масаласини ҳал этишда Ўзбекистон Республикаси аҳолисини тез суръатлар билан ўсиб боришини ҳам инобатга олиш зарур.

Қишлоқ хўжалиги олдида турган ўта муҳим ва ғоятда мураккаб ма-

салалар ҳал этилиши кўп жиҳатдан бу соҳада олиб борилаётган иқтисодий ислохотларнинг самарали ва мақсадга мувофиқ амалга оширилишига, моддий манфаатдорлик омилларининг тўғри қўлланилишига боғлиқдир. Бир сўз билан айтганда, бозор иқтисодиётида моддий манфаатдорлик ва қизиқтириш тизими ишлаб чиқарувчиларни ҳаракатга келтирувчи, тартибга солувчи, бошқарувчи куч бўлиб ҳисобланади. Ҳақиқатдан ҳам, бозор иқтисодиёти моддий манфаатдорлик ва қизиқтириш тизимига асосланиши зарур. Сабаби, ҳар қандай маҳсулотни ишлаб чиқариш ишлаб чиқарувчига фойда келтирсагина, у мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Қанчалик фойда ҳажми кўп бўлса, бундай маҳсулотни ишлашга бўлган моддий манфаатдорлик шунчалик юқори бўлиб, у ишлаб чиқарувчини ҳаракатга келтиради ва бутун қобилиятини ишга туширади. Иқтисодиётнинг аграр секторини ривожлантириш муаммоларини ҳал этиш Ўзбекистон Республикаси халқ хўжалигининг бозор иқтисодиётига ўтиш стратегиясини ҳал қилувчи бўғинидир.

Аграр секторда бозор муносабатлари таркиб топиши ва ривожланишининг асосий шартини мулк ислохот-

ларини амалга оширишдир. Мулк ислохоти асосида мулкчиликнинг ва унга мос ҳолда хўжалик юритишнинг янги шакллари вужудга келтирмай туриб, қишлоқ хўжалигини бозор иқтисодиётига ўтказиб бўлмайди. Тажрибалар шунини кўрсатадики, қишлоқ хўжалигида мулкчиликнинг ва унга мос ҳолда хўжалик юритишнинг янги шакллари таркиб топиб, ривожланиши мумкин: деҳқон (фермер) ва ижара хўжаликлари, ҳиссадорлик жамиятлари, кичик ва кўшма корхоналар, кооперативлар, халқ корпорациялари, агрофирмалар ва шу кабилар.

Деҳқон (фермер) хўжаликлари сони йилдан-йилга кўпайиб бораётган бўлса ҳам, ҳали уларнинг сони етарли даражада эмас. Уларнинг ялпи қишлоқ хўжалиги маҳсулотларидаги ҳиссаси жуда оз бўлиб, бошқа хўжалик юритиш шакллари билан рақобат қила олиш имкониятларига эга эмас.

Деҳқон (фермер) хўжаликларининг ҳажми ҳам кескин оширилиши керак. Суғориладиган кичик ерларда фермер хўжаликларини ташкил этиш етарлича самара бермайди. Бу чет эл мамлакатлари тажрибасида исботланган. Масалан, Англия ва Францияда 50 гектардан, Германияда 20 гектардан кам ерга,

АҚШда эса, 100 минг доллардан кам сармоёга эга бўлган фермер хўжаликлари рақобатда тез синиши кўпга учрайдиган ҳолдир. Андижон вилоятида фаолият кўрсатаётган фермер хўжаликларига ўртача 706 гектар ер тўғри келади. Шу жумладан, деҳқончилик соҳасида фаолият кўрсатаётганларга 11,8 гектар ер тўғри келиб, ҳар бир ишловчи ҳисобига 1,5 гектарни ташкил этади. Чорвачилик соҳасида ишлаётган фермер хўжаликларига ажратилган ерлар ҳажми шартли қорамолар сонига боғлиқ бўлиб, ҳар бир шартли қорамолга 0,32 гектар ер ажратилади. Фермер хўжалиklarини ишлаб чиқариш воситалари билан таъминлаш айниқса қишлоқ хўжалиги техниклари, ёқилғи, минерал ўғитлар, зотдор ҳайвонлар, ем-хашак, бойитилган озуқалар ва шу кабилар ҳали талаб даражасида ташкил этилган эмас. Фермер хўжаликлари моддий-техника базасини мустақамлашга эътиборни кучайтириш лозим.

Фермер хўжалиklarининг иқтисодий жиҳатдан мустақиллиги тўла таъминланмаган, улар ўзлари ишлаб чиқарган маҳсулотларига ўзлари эгаллик қилишлари ва ўзлари мустақил сота олишлари белгиланган бўлсада, бу механизмнинг тўла ишламаётганлиги маълум.

Ҳозирги кунда фермер хўжаликлари ўз бошларидан таркиб топиш, яъни ташкилий даврни ўтказиётганликларига боис, улар бир қатор ташкилий ва молиявий қийинчиликларга дуч келмоқдалар. Шунинг билан олиб, уларга ташкилий - иқтисодий ва молиявий жиҳатдан давлат ёрдами берилиши тақозо этилади.

Фермер хўжаликлари бошқаруви ҳудуддаги раҳбар шахсга эмас, балки қонунга бўйсунуши керак. Шунинг учун ҳам, фермер хўжалиklarининг бошлиғи Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида белгиланган ўзининг ҳуқуқ ва мажбуриятларини яхши билиши, уларни ўз фаолиятида самарали қўллаш олиши зарур. Фермер хўжалиғи аввало қонунчилик актларига асосан, ҳуқуқий шахс мақомига эга бўлган, қишлоқ хўжалиғи маҳсулотларини ишлаб чиқариш, қайта ишлаш, ўз тасарруфидаги ер ва бошқа ишлаб чиқариш воситаларидан мустақил фойдаланиш ҳуқуқига эга бўлган хўжалик юришти субъектидир. Фермер хўжалиғи тадбиркорлик фаолиятининг бир кўриниши бўлиб, у

иқтисодий манфаатдорлик асосида ишбилармонлик билан маҳсулотни кўпайтириш, унинг сифатини яхшилаш ва харажатларини камайтириш орқали юқори фойда олиш мақсадида ташкил этилади.

Фермер хўжаликлари низомларини ўрганиш ва таҳлил этиш асосида куйидаги хулосага келдик: бир қатор фермер хўжалиklarиди ўз низомларини тузишга етарлича эътибор берилмасдан камчиликларга йўл қўйилмоқда, натижада уларнинг фаолиятлари ўз низомларига тўла мос келмайди. Бу эса, кўп ҳолларда текширувчи муассасалар ва фермер хўжаликлари ўртасида келишмовчиликларга, турли хил тортишувларга ва норозиликларга сабаб бўлмоқда.

Андижон вилояти қишлоқ хўжалигида ташкил этилган фермер хўжаликлари фаолиятини ўрганиш ва таҳлил этиш асосида куйидаги хулосаларга келиш мумкин:

- фермер хўжаликлари Ўзбекистон Республикасининг қонунчилик актларига мос ҳолда ихтиёрий равишда ташкил этилиши;

- фермер хўжаликлари низоми ўзида фаолиятни тўла акс эттири-



ши ва Ўзбекистон Республикасининг қонунчилик актларига мос келиши;

- фермер хўжалиklarининг ер ва бошқа ишлаб чиқариш воситаларини ижарага олиш тўғрисида, ҳамда давлат ва корхоналар билан турли хил соҳаларда муносабат боғлашда тузиладиган шартномалар кенг ва батафсил бўлишига эътибор бериш лозим.

Улар ўз фаолиятларида бир қатор қийинчиликларга дуч келаётганлигининг асосий сабаби-фермер хўжаликлари бошлиқларининг ҳуқуқий ва иқтисодий тайёргарлиги етарли даражада бўлмаганлиги оқибатида содир бўлмоқда. Шунинг билан олиб, фермер хўжаликлари уюшмаси қошида доимий ҳаракатдаги масла-

хат марказларини ташкил этиш мақсадга мувофиқ бўларди.

Вилоятда тузилган фермер хўжаликлари фаолиятини ўрганиш ва тўпланган маълумотларни таҳлил этиш асосида уларни бошқаришнинг ўзига хос хусусиятларини аниқлашга ҳаракат қилдик. Фермер хўжалиklarини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятларидан бири-бу суғориладиган ерларни ўта чекланганлигидир. Бу фермер хўжалиklarи сонини кўпайтириш ва уларга талаб даражасида етарлича ер ажратиб бериш йўлидаги асосий муаммодир. Кўпчилик фермер хўжалиklarиди уларга ажратилган ер участкалари 2-10 гектарни ташкил этади. Кичик ер участкаларида ташкил этилган фермер хўжалиklarиди суғориш иншоотларидан, техника ва қишлоқ хўжалиғи машиналаридан, ҳамда ишчи кучидан самарали фойдаланиш имкониятлари нисбатан чекланган характерга эгадир. Энг асосийси, кичик фермер хўжаликлари ҳозирги замонавий техникаларни сотиб олиш имкониятларига эга эмас, ташкил этилаётган ва фаолият кўрсатаётган бир қатор фермер хўжалиklarининг яна бир хусусияти бу—уларга ажратилган ерларнинг доимий беркитиб қўйилмаганлигидир. Масалан, чорвачиликка ихтисослашган фермер хўжалиklarини айримларига берилган ер участкалари алмашлаб экиш жадвалига мос ҳолда силжиб юради. Аксинча ер участкаси фермерга доимий беркитиб қўйилган бўлса, у ҳолда пахтачиликка ёки дончиликка ихтисослашган фермер хўжалигида алмашлаб экиш муаммоси вужудга келади.

Вилоят қишлоқ хўжалигида асосан суғориладиган ерларда деҳқончилик қилинганлиги учун мавжуд ерлар суғориш карталарига бўлинган бўлиб, уларни ҳажми 3 гектардан 30-35 гектаргача етади. Йириклаштирилган карталарни бир неча фермер хўжалиklarига бўлиб берилиши мақсадга мувофиқ эмас. Сабаби, бундай ҳолларда суғориш шохобчаларидан фойдаланиш қийинлашади. Техника ва қишлоқ хўжалиғи машиналаридан фойдаланиш самарадорлиги пасаяди.

**Maqola matnini
Bahodir NOSIROV
tayyorladi.**

МУНДАРИЖА

MUSTAQILLIKNING 10 YILLIGIGA!

A.Saidahmedov. "Agrar soha qaddini rosladi..."	2
MUTAXASSIS MULOHAZASI	
T.Ahmedov. Shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va sanoat korxonalarini joylashtirilishi	6
U.Kostayev. Daromadni tan olish	10
BOZOR, BAHO, TAHLIL	
S.G'ulomov, B.Begalov, SH.Xoshimxodjayev. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistika tizimini takomillashtirish	12
B.G'oyibnazarov. Dunyoviy andozalar darajasidagi statistikaning tashkil etish	16
H.Saydahmedov. Mineral xom-ashyo resurslaridan foydalanishning mintaqaviy xususiyatlari	18
I.Rustamova, S.To'xtayeva, SH.Ochildiyev. Mahsulotlar qayta ishlanishida investitsiyalar jalb qilinishi	20
M.Almardonov. Tadbirkorlik sub'yektlarini soliqqa tortish tamoyillarini takomillashtirish	22
S.Alibekova. Bozor iqtisodiyotida daromadlar taqsimlanishi	23
A.Vahobov. Ko'pukladli iqtisodiy sharoitda ishchi o'rinlari yaratilishi	24
TA'LIM VA ISLOHOT	
Saodat Dil Zoda. O'z kasbining fidoyisi	26
AGROSANOAT: TAJRIBA, MULOHAZA, ISTIQBOL	
B.Nosirov. Fermer xo'jaliklari vujudga kelishining iqtisodiy mohiyati	28
F.Nazarova. Agrosanoat majmuida lizing faoliyatini yo'lga qo'yish	30
MINTAQAVIY ISLOHOTLAR	
YO.Ergashev. "Popfen" imkoniyatlari kengaymoqda	33
S.Buzrukhonov. Xususiyashtirish va ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish	34
A.Hotamov, M.Mamajonov. Andijon viloyatining o'ziga xos xususiyatlari	36
NUQTAI-NAZAR	
B.Ibrohimov. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatida logistika tizimlari	38
A.Mavlonov, F.Allayorov. Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy muomala vositasi shakllantirilishi	39
SH.Hamidova. Yangicha munosabatlar sharoitida himoya tizimining an'anaviy usullari	41
TADBIRKORLAR, SIZLAR UCHUN!	
Z.Odilova. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda marketing samaradorligi	42
S.Hasanov. Shirkat xo'jaliklarida ichki xo'jalik munosabatlarini yo'lga qo'yish	44
B.Mo'ydinov. Hissadorlik jamiyatlarida bank kreditlarini hisobga olish	46
TAJRIBA, TASHABBUS, TAHLIL	
SH.Ernazarov. G'allachilikni daromadli sohaga aylantirish	47
M.Mahammato'va, N.Turdiyeva. Bug'doy va boshqoqli ekinlardan mo'l hosil olish	48
TARMOQ VA BOZOR	
SH.Zokirov, O.Jumayev. Dunyoviy andozalardagi meva-sabzavotlar bozorini tashkil etish	49
L.Abdullilova. Oziq-ovqat tovarlari bozori	50
I.Yaxyayeva. Ishlab chiqarishni takomillashtirish - taraqqiyot omili	51
MULK VA MULKDOR	
R.Karliboyeva. Hissadorlik jamiyatlari faoliyatini samarali tashkil etish	52
M.Tursunova, N.Atamirzayeva. Hissadorlik jamiyatlarining to'lovga qodirligini aniqlash	53
TAKLIF YOHUD MULOHAZA	
J.Xoltayev. Investitsiyalash jarayoniga sarmoyadorlarni jalb etish omillari	54
X.Muhitdinov, A.Ochilov. Investitsiyalarni jalb etishda banklar faoliyati	55
O'ZBEKISTON VA JAHON	
N.Rahmatova. Qo'shma korxonalarda marketing tadqiqotlari o'tkazish	56
NOBEL MUKOFOTI SOVRINDORLARI	
R.Saidahmedova. 1998 yil Amarta Sen	57
XXI ASR - G'OYALAR ASRI!	
T.Norboyev. Milliy istiqbol g'oyasi	58
R.Rahmonov. Milliy ma'naviy meros	59

TELEFONLAR:

Bosh muharrir qabulxonasi	139-11-25,
Bosh muharrir o'rinbosari	139-11-26,
mas'ul kotib (o'zbekcha nashr)	139-12-32,
mas'ul kotib (ruscha nashr)	139-12-34,

BO'LIMLAR:

iqtisodiy islohot va bozor munosabatlari (o'zbekcha nashr)	139-12-31,
(ruscha nashr)	139-12-34,
xalq xo'jaligi iqtisodiyoti va ijtimoiy masalalar (o'zbekcha nashr)	139-12-31,
(ruscha nashr)	139-12-30,
xatlar va omma bilan aloqa	139-12-35,
buxgalteriya	139-12-33,
kompyuter bo'limi	139-12-27,
faks:	139-19-83.

Navbatchi muharrir:
Saodat G'OYIPOVA.

Musahhih:
Risolat SAIDAHMEDOVA.

Matnlarni oqqa ko'chiruvchi:
Sherzod MARDIYEV.

Bosishga 15. 03. 2001 da
ruxsat etildi.
Qog'oz hajmi 60x90 1/8.
Ofset usulida chop etildi.
1 ofset qog'ozi.
Shartli bosma taboq 8,4.
Nashriyot bosmada
nashr hajmi 10.
Buyurtma № 1759
Bahosi kelishilgan narxda.

Oynoma mustaqil ravishda
5000 nusxada nashr etildi

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.
700083, Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41.